



YANGI KUN MADHI



Boshi 1-betda

Navro'zning paydo bo'lishi haqida ko'plab afsonalar mavjud. Masalan, zardushtiy davrida bahorning birinchi kunini ezgulik xudosi yovuzlik xudosi ustidan g'alaba qilgan muqaddas sana, deb bayram qilishgan.

Navro'zning qadimiyligini buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy ham o'z kitoblarida alohida ta'kidlab o'tgan: «Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi Farvardin oyidir. Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir. Tarix shohid erur, u ahmoniy davridan boshlanib, an'anaga aylaniyotgan».

Ulug' shoir Umar Hayyom bu ayyomga

atab «Navro'znom» asarini yozib qoldirgan. Unda ta'kidlanishicha: «Oftobning ikki aylinishi mavjud. Ulardan biri quyidagicha: oftob har uch yuz oltin besh kun-u kecha-kunduzning to'rtidan birida Hamal burjining birinchi daqiqasiga chiqib ketgan paytining o'zida yana qaytib keladi va har yili bu davr kamaya boradi.

Bu kun Navro'z deb ataldi va uni bayram qilish odatga aylandi. Podshohlar va boshqa odamlar ham uni qabul qildilar».

Buni Firdavsiy o'zining «Shohnoma» dostonida quyidagicha tasvirlaydi:

Taxt ko'kda charx urar misoli quyosh, Farmondor o'tirar, unda irg'ab bosh. Barcha jam, odamlar qarar taxtiga, Jahon qoyil bo'lib shukuh-baxtiga. Jamshidga sochishar oltin-u gavhar, Shu kunni yangi yil – bayram deyishar!

Sho'rolar davrida xalqimizning bu qadimiy bayrami ta'qiqlanib kelindi. Lekin qanchalik to'sqinlik qilinmasin, u yashirincha nishonlanaverdi.

Istiqlol xalqimizga qadimiy bayram –


Navro'zni qaytarib berdi. Yurtboshimiz aytganlaridek: «Navro'z hayot abadiyligining, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saodatining, shu bilan birga, bizning bir necha ming yillik qiyofamizning, urf-odatlarimizning mangulik ifodasi tasdig'idir».

Navro'z ayyomi xushta'm taomlari bilan yanada aziz, qadrlidir. Uning shoh taomi sumalakdir. Xushbo'y ishi va lazzati qish bo'yi horigan vujudlarga quvvat beruvchi bu jannati taomni tayyorlash aslida mehri-daryo momolardan meros. Bor mehrlarini berib, undirilgan bug'doy maysasini qozonga solib, tonggacha kovlab chiqishning o'zi ham bir san'at. Sumalak atrofida aytiladigan qo'shiqlar, momolarning tillaridan uchgan ilohiy duolarning o'zi bir sinoat. Bu quvonchli, go'zal onlarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan o'g'il-qizlar bu shodiyonaning har bir lahzasini esda saqlab, avlodlar an'anasini davom ettirishga dildan qasamyod qilishayotgandek.

Yurtimizning gul-gul ochilgan bog'larida, yam-yashil adirlarida, dalalarda – hamma joyda yasharish, jonlanish damlari, Navro'z ayyomi!

Navro'zing muborak bo'lsin ushbu dam, Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim!

Jabbar RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist



21-martda kun bilan tun tenglashadi.

Qaldirg'och, zarg'aldoq, eng so'nggida ko'k qarg'a issiq o'lkalarga qilgan uzoq safarlari-dan qaytib keladi. Xalq orasida: «Ko'k qarg'a-ning kelishi – sovuqning tugashi», deyilgani bejiz emas.

O'quvchi, sen uyingdagi daraxtga qushlar uchun in yasab qo'ydingmi? Qaldirg'och-ku o'ziga uya qura oladi, lekin boshqa qushlar o'sha sen yasagan uya-ga kirsam, suyunib ketishing tayin. Bunday paytlarda ularga g'am-xo'rlik qilish insonning burchi. Avvalo, bu sening vazifang!

1. Hamal oyi milodiy yil bo'yicha 21-martdan 20-aprelgacha davom etadi. 30 kun.

2. 21-martda kun 12 soat, tun ham 12 soat davom etadi. 31-aprelga borib kunning uzunligi 15 soatdan oshadi.

3. Qariyalar: «Hamal kirdi, amal kirdi», deyдилar.

4. 15-apreldan jun qirgimi boshlanadi. Me'yordagi o'rtacha yog'ingarchilik miqdori 50 millimetr, ba'zi yillar undan ko'proq bo'lishi ham mumkin.

Aziz bobalari! Biz sevgan yurtga bahor keldi!

Gullagan bog'-rog'larni ko'rib, bahri-dilimiz ochilmoqda. Har yerda, har joyda bayram tadbirlari o'tkazilib,

shu hamkorligida Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligi hamda Navro'z bayramiga bag'ishlangan katta tadbir

MADANIYAT KOLLEJIDA

aziz Vatan, go'zal bahor, ezgulik, baxt-saodat haqida so'zlar yangramoqda, she'rlar o'qilmoqda.

Poytaxtimizda joylashgan Toshkent madaniyat kollejida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi Ijroiya qo'mitasi, «Yoshlik» talabalar shaharchasi, Uchtepa tuman Kenga-

bo'lib o'tdi. Unda adiblardan Mirzapo'lat Toshpo'latov, To'liqin Hayit va shoir Alisher Xudoyberdi ishtirok etib, Vatan va Navro'z bayrami haqida talabalar bilan suhbatlashdilar, she'rlar o'qildi, qo'shiq va kuylar yangradi.

Tadbirdan ishtirokchilar ham, talabalar ham katta zavq olishdi.

O'z muxbirimiz



3
1000 yigirda

Azim Foshkentda umrguzaronlik qilayotgan Nasiba opa Nishonovaning hayot yo'liga nazar tashlar ekanman, beixtiyor shu so'zlarni aytgim keldi: postaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 243-umumta'lim maktabiga rahbarlik qilib kelayotgan opa salkam qirq yildirki, mana shu muqaddas dargohga eltuvchi yo'ldan qatnaydilar. Uning past-u balandliklari ham, tosh-u xaslari ham qadrdon bo'lib ketgan ularga.

Ustoz shu yillar mobaynida qanchadan-qancha shogirdlarni kamol toptirdilar. 1000 o'ringa mo'ljallangan mazkur maktabda hozirgi kunda 2500 nafar o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya olayotganini hisobga olsak, ular sonini o'zingiz chamalayvering. Shogirdlari orasida o'zi tahsil olgan maktabda ishlash niyatini bildirganlari qancha... 102 nafar fidoyi ustozlarning 10 nafari maktabning sobiq bitiruvchilardir. O'qituvchilar sulolasidan bo'lgan opaning qizlari ham ona kasbini ardoqlab kelishaypti.

Insonning sevimli kasbi uning hayot mazmuniga aylanib qoladi, deganlaricha bor ekan. Nasiba opaning har tong

buyumlari ko'rgazmasi, chap tarafda esa pazanda qizlarimiz pishirgan shirinliklar, po'rsildiq somsalar-u mazali

o'rganaman. Mehnat ta'limi darslarida, maktabimiz qoshidagi «Mohir qo'llar» to'garagida o'rganganlarimni mahallamizdagi dugonalarimga ham o'rgataman. Hozircha ikki qizaloqqa «ustoz»lik qilyapman...

Shu tobda jaranglab qolgan qo'ng'iroq sadosi suhbatimizni bo'lib qo'ydi. «Bozor» vazifasini o'tayotgan maktab oshxonasi zumda o'quvchilarga to'ldi. Kimdir shirinliklar sotilayotgan



Yoshlikda zahmat chekib ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan.

YILLAR VA O'LLAR

korlik bilan shug'ullanish niyatidagi yigitlarimiz ham talaygina.

O'quvchilarimiz nafaqat hunar, balki ilm-fan, san'at, sport sohaslarida ham yuqori natijalarni qo'lga kiritib, bilim dargohimiz nomini tumanga, shaharga, hatto respublikaga ham tanitishyapti. Maktabimiz qoshidagi koreys tili to'garagi a'zolari o'tgan yili tumanlararo musobaqada 2-o'rinni egallashdi. 7-«D» sinf o'quvchisi Abduvoris Abdumajidov «Bilimlar sinovi»ning tuman bosqichida to'qqizta fan bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritib, shahar bosqichiga chiqdi. Sarvar Zoirov «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida qo'shiqchilik yo'nalishi bo'yicha g'olib



O'g'il-qizga bilim, hunar o'rgatish kerak, toki bu hunarlar bilan fe'l-atvori go'zal bo'lsin.

nabiralaridek suyuqli bo'lib qolgan o'quvchilarini sog'inib, qadrdon maktablari sari oshiqishlari ham shundan...

BIZNESIMIZ MALIKALARI

Bugun ham shunday bo'ldi. Maktabga kiraverishda mehnat ta'limi o'qituvchisi bilan allanimalar xususida gaplashib, ichkariga endigina qadam qo'ygan Nasiba opani qaqajon qizaloqlar o'rab olishdi:

– Ustoz, biz bilan yuring, aziz mehmonimiz bo'lasiz, – deya maktab oshxonasi tomon yo'l boshlashdi ular.

Bayramona bezatilgan maktab oshxonasida bugun «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili»ga bag'ishlangan «Biznesimiz malikalari» nomli qandolat mahsulotlari ko'rgazmasi bo'layotgan ekan. O'ng tarafda chevar qizlar o'z qo'llari bilan tikkan, to'qigan

kulchalar kishining ishtahasini qitiqlaydi.

Nasiba opa hamrohligida o'quvchilarning ishlarini ko'zdan kechiramiz: to'qilgan paypoqchalar, nimchalar, shapka va sharflar, bolalar kiyimchalari, yubkalar, munchoqlar bilan bezatilgan yostiqlardir, choynak yopqichlari, yelpig'ichlar... E'tiborlisi, barchasining sotilish bahosi yozib qo'yilgan.

– Savdolar qalay bo'lyapti? – suhbatga tortamiz qizlarni.
– Yomon emas, – deyishadi bir ovozdan.

– Savdodan tushgan pulingizni nimaga ishlatmoqchisiz? – so'raymiz 8-«D» sinf o'quvchisi Nasiba To'rabekovadan.

– Bugun to'qigan buyumlarimni sotolsam, puliga ip sotib olaman va to'qishning yangi-yangi usullarini

rastalar tomon oshiqsa, yana kimdir tengdosh dugonalari tikkan, to'qigan kiyimlarni zavq bilan tomosha qila boshlashdi. Ayrimlari «sotuvchi»lar bilan savdolasha-savdolasha mittigina

nimchalar, paypoqlar sotib olishdi. Ayniqsa, 8-«V» sinf o'quvchilari Dilshoda Shamsiddinova, Robiya Ermatova, Xosiyat Sodiqxo'jayeva, Visola Abdukarimova, Hilola Erkinova, Nodira Abdulhatova, Kamola Ziyovuddinova kabi pazanda qizlarimiz o'z qo'llari bilan tayyorlagan pishiriqlarning bozori chaqqon bo'ldi. Ularning mahoratiga hatto bosh oshpaz Muharam Akromova ham yuqori baho berdilar.

Qizlarimizning pazandaliklariga, shuningdek, tadbir tashkilotchilari Saodat Hoshimova hamda Farida Karimovanning fidoyiligiga biz ham yuqori baho berdik.

– Maktabimizning yigitlari ham bo'sh kelishmaydi, – dedilar Nasiba opa faxr bilan.
– «Milliy hunarmandchilik» to'garagi rahbari Hojimoreddin Hoshimovdan sandiq, o'qlov, jo'va, chakich kabi ro'zg'or anjomlari yasashni o'rganishyapti. Yaqinda ular ham o'z qo'llari bilan yasagan buyumlarini maktab «bozor»ida sotishdi. Kelgusida kichik korxonaga ochib, tadbir-



Aql ko'pga yetkazar, Hunar ko'kka. O'zbek xalq maqoli

bo'ldi. Basketbolchi qizlarimiz esa «Umid nihollari» sport musobaqalarida qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdilar...

Shogirdlarim yutuqlaridan quvonib, umrim besamar o'tmayotganiga shukronalar aytaman...

O'tayotgan har bir kunidan, hayotidan qoniqib yashash baxti barchamizga nasib etsin!

Feruz JALILOVA



Navro'z bayrami arafasida ariq-zovurlar tozalanadi. Bir-birlari bilan arazlashib qolgan, o'zaro gaplashmay yurgan kishilar yarashib olishlari kerak.



Qaldirg'ochlar meni kutib olishadi...

4

SOG'INTIRMAI KELGIN!
BAHORIM!!!

Bolaligimda qish oxirlab, kunlar iliy boshlashi bilan qadrdon «do'stlarim»ni kuta boshlardim. Ularni har tong ayvonimizga chiqib qarshi olish o'sha paytdagi eng «zarur ishlarim»dan biri edi...

– Oyijon, bahor qachon keladi? – so'rardim onamdan ayvonimizdagi qaldirg'och iniga sog'inch bilan tikilib.

– Oz qoldi, qizalog'im, – derdilar onam meni bag'rilariga bosib.

– Dadajon, mening qaldirg'ochlarim qachon kelishadi? – yana so'rardim men uchun dunyodagi eng mehribon insondan.

– O'zimning gul yuzli, sersavol qizalog'im, qaldirg'ochlarning sen kutgan bahorni belanchakka solib, olib kelishadi, – derdilar yuzlarimdan o'pib.

Qaldirg'ochlar kelganda esa... Erta tongdanoq ayvonimiz uzra

ponlariga judayam mehribon, xuddi oyim bilan dadamga o'xshashadi-ya, xayolimdan o'tkazardim men. Qaldirg'ochlar tumshuqchalarida olib kelgan yeguliklari yerga tushib ketsa, ularni qo'limga olib, tepaga qarab anchagacha uzatib turardim. Qani endi bo'yim qaldirg'ochlar iniga yetsa-yu, ularni o'zim ovqatlantirib qo'ysam, degan fikrni xayolimdan o'tkazardim. Bo'yim u yoqda tursin,

charx urib, palaponlari atrofida parvona bo'layotgan qaldirg'ochlarni uzoq kuzatardim. Pala-

hatto qo'lim eshik tutqichiga yetmasligidan xafa bo'lib, yig'lab yuboardim...

Mana, oradan yillar o'tdi. Endi men qaldirg'ochlarni emas, ular meni kutib olishadi qadrdon ayvonimda...

– Xuddi o'zingga o'xshab nabiralarim ham qaldirg'ochlarni sog'inshadi-ya, – deydilar onajonim ularni bag'rilariga bosib.

– Ularga ovqat yedirmoqchi bo'lishlari ham xuddi o'zing-a, – deydilar otajonim farzandlarimga mehr bilan boqib.

– Buvijon, bahor qachon keladi? – so'raydi o'g'lim qaldirg'och inidan ko'zini uzmay.

– Bobojon, qaldirg'ochlarimiz qachon kelishadi? – so'raydi qizalog'im buvasining bo'ynilariga osilib.

Ana shunda yuragimning tubtubidan sevinch va sog'inch ila bahorga atalgan so'zlarim otilib chiqadi: «Sog'intirmay kelgin, bahorim, biz seni har yili intiq kutamiz! O'zing bilan, albatta, qaldirg'ochlarimni ham olib kel!»

Gulyuz BAHODIR qizi

Abdusaid KO'CHIMOV

BOYCHECHAK

Yaproqlarini yozdi serg'alva tongda,
Qishning muz taxtiga solib zilzila.
Uning bu shiddatli jasoratidan,
Qahraton qish qalbin bosdi g'ul'g'ula.

Garchand ko'rolmadi suluv bahorni,
Lekin unga jonin fido etdi u.
Va go'yo: «Do'stlarim, bahorni kuylash –
Jondan-da aziz!» – deb nido etdi u.



«Onajonim tabiat» insholar tanloviga



5



Qadrli tabiat shaydolari, o'tgan yili gaztamizda «Onajonim tabiat» insholar tanlovi o'lon qilinganidan keyin tahririyatimizga kelayotgan maktublar soni ko'payganidan xabaringiz bor. Bayram kunlarida ham xatlar oqimi to'xtamayapti. Maskur tanlovimizni bu yil ham davom ettirish niyatida o'lon berganimizdan so'ng xatlarning soni yana seshlartli darajada ortdi. Bu esa o'quvchilarimiz orasida tabiat shaydolarining ko'pligidan dalolatidir.

Quyida o'tiboringizga ana shu tanlovga kelgan maktublardan o'lon qitamiz.

HISSA

Sevimli gazetamiz orqali «Onajonim tabiat» insholar tanlovi yana e'lon qilinganidan juda quvonib ketdim.

Chunki bolalikdanoq tabiat shaydosiman. Maktabimiz qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagiga a'zo bo'lganimdan keyin tabiatga bo'lgan mehrim yanada ortdi. To'garak rahbarimizning aytishi-cha, biz tabiatga qanchalik e'tiborli bo'lsak,

mehr ko'rsatsak, u ham bizdan bor saxovatini ayamas ekan. Ustoz boshchiligida o'lkamizda kamayib borayotgan o'simliklarni laboratoriyada ko'paytirib boryapmiz. Tumanimizda atrof-muhitni himoya qilish borasida ko'plab idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boryapmiz. Ko'cha va mahallalarimizni obod qilish uchun tez-tez shanbaliklar uyushtirib, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari, rango-rang gullar ekyapmiz. Ekibgina qolmay, ularni o'z vaqtda sug'orib, parvarishlab, tabiat ne'matlarini avaylab-asrashga hissa qo'shyapmiz.

Mardonbek BOLTAYEV,

Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 1-son ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan maktabning 8-sinf o'quvchisi

TO'RT FASLNING ZIYNATI

Men 8-sinfda o'qiyman. Barcha fanlarni yoqtiraman, ayniqsa, nemis tili fanini katta qiziqish bilan o'rganyapman.

Dars jarayonida Germaniya bilan O'zbekistonning joylashish hududidan tortib, iqlimi, tabiatigacha solishtirib o'rganamiz. Bu esa bilimlarimizni yanada boyitishga, dunyoqarashimizni kengaytirishga yordam beryapti.

Darhaqiqat, ayrim davlatlarda faqat sovuq qish hukmronlik qilsa, ayrimlarida jazirama yoz uzluksiz davom etaveradi. Biz esa yil davomida to'rt fasldan bahra olamiz. Shuning uchun ham O'zbekiston degan jannatmakon yurtda yashayotganimizdan faxrlanamiz.

To'g'ri, bizda ham ayrim ekologik muammolar uchrab turadi. Keling, tengdoshim, ularni birgalikda bartaraf etaylik! Zero, barchamiz shu tabiat farzandlarimiz!

Malika QOBILOVA,

Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi 47-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi





GULLAGAN DARAXT

Sog'inchim – yurakda gullagan daraxt,
Uning yaprog'ida zavqlarim gardi.
Borliqni sevishim bu ilohiy baxt,
Ko'zimda bir dunyo shodlik yotardi.

Niyatlar kun sayin bormoqda ortib,
Quvonchlardan boshim aylanib qoldi.
Orzularim unsiz qo'limdan tortib,
Tabassum yuzimga do'st bo'lib oldi.

Do'stlarim, sevinchim ko'klarga yetar,
Umr daftarim ham go'zal tobora.
Meni yashnayotgan lahzalar kutar,
Shodlik manziliga yetkazsa zora...

*Sadoqat HOTAMOVA,
Toshkent shahri, Chilonzor
tumanidagi
181-maktabning 9-«B» sinf
o'quvchisi*

KETMON

O'tib ketdi sovuq qish,
Ketmonga topildi ish.
Ishlar yayrab dalada,
Jo'r bo'lib kuy-yallaga –
Xirgoyi qilar dehqon,
Qo'lida «o'ynar» ketmon.

*Jasur ESANOV,
Buxoro viloyati, Shofirkon
tumanidagi 4-maktabning 5-sinf
o'quvchisi*

CHECHAKLARNI UYG'OTMOQ UCHUN

Keldi Navro'z, demak yangi kun,
Yangilanar TABIAT butun,
Chechaklarni uyg'otmoq uchun
Bahor keldi chehralar gulg'un –
Tenglashadi kecha-kunduzim,
Xush kelding, yilboshim – Navro'zim!

Borliq suluv qizday uyg'onar,
Zamin yong'ir suviga qonar.
Elim mehnat ishqida yonar,
Iliqlikdan qalblar qo'r olar.
Munavvar porla BAXT yulduzimiz –
Xush kelding, yilboshim – Navro'zim!

*Eshniyoz BURHONOV,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani*



QUYOSH

Yangi uzilgan nonday
Qizarib chiqdi o'tob.
Yilnoma kitobida,
Ochildi yangi bir bob.

Horimas boboquyosh,
Zaminni gulga burkab.
Qizdirar misli tandir –
Cho'g' bo'lib, olov purkab.

Soch-u soqoli to'zgan,
Jilmayar har yon tarab.
G'imirlagan jon borki,
Avaylar nurga o'rab.

Ravshan ISOQOV



NAVRO'Z

O'rik kurtak otib qiyy'os gulladi,
Kapalak gullarga xushnud so'yladi,
Bulbul xonish ila qo'shiq kuyadi,
Yurtimga kelaqol, Navro'zi olam!

Bog'-adir yashnaydi lolalar bilan,
Qirlar ham fayzli bolalar bilan,
Borliq orolanar dalalar bilan,
Yurtimga kelaqol, Navro'zi olam!

Shahlo XOLMATOVA

BAHOR




Qirda gullar ochildi,
Lola hamda qizg'aldoq.
Maysalar shivirlashdi,
Boychechak tutdi bayroq...

*Temur ERGASHEV,
poytaxtdagi 178-maktabning
4-«V» sinf o'quvchisi*

KO'KLAM

Ko'klam – mohir musavvir,
Yaratar ajib tasvir.
Bo'yoqlari rang-barang,
Chor atrofga bir qarang!

Firdavs AXTAMOV





TURNALAR QACHON KELADI?

Dam olish kuni edi. 4-sinfda o'qiydigan o'g'lim Dilmurod bilan itkalamiz uyda edik. Bir tabaqasi ochiq derazadan mayin bahor shamoli xonaga kirib, kishini yoqimli allataydi.

Hovli o'rtasidagi oppoq gullagan bodom yaqiniginada daraxtlarni qoplagan oppoq qorlarni eslatadi.



– Dada, turnalar qachon keladi?

Dilmurodning dabdurustdan bergan savolidan hayron bo'ldim. Yoshligimda dalalarda o'ynab yurgan paytimizda ko'p ko'rardim. Oxirgi yillarda esa ularga ko'zim tushmaganini esladim.

– Turnalar Navro'zda – kunlar isiy boshlagan paytda keladi. Ular ko'm-ko'k dalalar ustidan uchib o'tishni yaxshi ko'rishadi.

Dilmurodning yuzlari yashnab ketdi.

– Turnalar haqida kitob o'qidim. Ular bir-biriga mehribon, hech qachon sherigini tash-

lab ketmaydigan chin do'st bo'lishar ekan. Arg'amchi solib uchishlarini rosa ko'rgim kelyapti.

– Hovlidagi daraxtlarni parvarishlab, hamma yerni ozoda tuisanglar, bizning ham uyimiz ustidan uchib o'tishadi. «Qure, qure»lab omad tilashadi, – dedim ishonch bilan. Bu gapdan o'g'lim xursand bo'lib ketdi.

– Men daraxtlarni yaxshi ko'raman. Maktabdagi bog'bon amakiga yordam bergandim, u kishi menga yaxshi bir xurmo ko'chati beraman dedilar. Ertaga olib kelaman. Qayerga eksam bo'ladi?

O'g'lim bilan birga hovliga chiqdim. Hovlining oftob ko'proq tushadigan joyini ko'rsatdim.

– Xurmo uchun mana shu yer juda yaxshi bo'ladi.

Ertasi kuni ishdan kelishim bilan o'g'lim suyunchiladi.

– Dada, bog'bon amaki bergan xurmoni aytdan joyingizga ekip qo'ydim.

Nazarimda, o'g'lim o'ziga yangi do'st topqanday edi. Ertalab turishi bilan ko'chatidan xabar oladi. Maktabdan kelgandayam shu ahvol. Bog'bon amakidan olgan maslahatlari bilan hovlidagi bosh-

qa daraxtlarga shakl berishniyam uddaladi. Har zamonda mendan, turnalar qachon keladi, deb so'rab qo'yadi. O'zim ham shu kunlarda biror qushning ovozi eshitilib qolsa, osmonga qaraydigan bo'lib qoldim. O'g'limning shuncha harakatlari uchun ham hovlimiz ustidan turnalar uchib o'tishini juda-juda istardim.

Ertaga Navro'z! Ishdan ertaroq chiqib, bolalarga sovg'alar oldim. Bekatga yaqinlasharkanman, yo'lovchilarni hayajon bilan osmonga tikilayotganlarini ko'rib, shoshib tepaga qaradim. Qator-qator turnalar tortilgan kamon shaklida, saflari bir tekis uchib o'tishardi.

Tezda uyga qo'ng'iroq qildim. Go'shakni ko'targan o'g'limning hayajoni darrov sezildi:

– Dadajon, turnalar shundoq hovlimiz ustidan uchib o'tishyapti! Arg'amchi solib uchishlarini bir ko'rsangiz edi...

Beixtiyor ko'zlarim yoshlandi. Nima uchundir tezroq uyga borgim, o'g'limni bag'rimga bosgim kelardi.

Yusuf ABDULLAYEV





ZUKKOLAR BELLASHUVI

Qiz bola oilaning ko‘rkigina emas, uning yuzi, sha‘ni hamdir. Shunday ekan, biz qizlar aqlli, odobli, chevar, pazanda, qo‘ying-chi, har jihatdan barkamol bo‘lishga intilishimiz lozim.



Bunday fazilatlarni bolaligimizdanoq shakllantirib borsak, nur ustiga a‘lo nur.

Kuni kecha maktabimizda Navro‘z bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan «Balli, qizlar!» tanlovda 3-4-sinf qizaloqlari beshta shart bo‘yicha o‘zaro bellashdilar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Nodira opa Xoliqova boshchilik qilgan mazkur tanlov juda qiziqarli o‘tdi. Jajji singillarimizning olma artish, bayram dasturxonini bezatish, ko‘katlardan salat tayyorlash, mantiqiy savol-javoblar kabi

shartlarni chaqqonlik bilan bajarayotganlarini ko‘rib, to‘g‘risi, biz ham havas qildik.

Biri-biridan zukko, hozirjavob ishtirokchilar orasidan g‘oliblarni

3-«A» sinf qizaloqlarini g‘olib deb topishganda, zal olqishlarga to‘lib ketdi. «Kichkina demang bizni...» deganlari shu bo‘lsa kerak-da...

Tanlov so‘ngida 8-sinf o‘quvchilari o‘z qo‘llari bilan yasagan qutilarni ustozlariga sovg‘a qilishdi.

Lobar ALIYEVA,
poytaxtdagi 132-umumta‘lim maktabining 8-«M» sinf o‘quvchisi



saralashga tanlovga hakamlik qilgan maktabimiz o‘qituvchilari ham biroz ikkilanib qolishdi. Lekin o‘z nomi bilan tanlov bo‘lgandan keyin uning g‘olibi ham bo‘lishi kerak-da. Uzoq maslahatlashib,



BARCHINOYNING IZDOSHLARI


Kollejimiz qizlari o‘rtasida sportning kurash turi bo‘yicha «Barchinoyni izdoshlari» deb nomlangan tuman ochiq birinchiligi bo‘lib o‘tdi.

Surxon vohasi polvonlar yurti bo‘lgani uchun sportning bu turiga alohida e‘tibor qaratiladi. Musobaqada kollejimiz qizlaridan Guljahon Ashurova, Maqsuda Amonova, Husniya Qarshiyevalar o‘z vaznlari bo‘yicha 1-o‘rinni egallab, viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdilar. Bu natijalar kollej jismoniy tarbiya o‘qituvchilari Mahmanazar Boltayev, Obid Toshqulov va Akmal Qurbonmurodovlar mehnatlari samarasi, desak yanglishmaymiz.

Kurashchi qizlarimizning nafaqat tumanda, balki respublikada ham sovrinli o‘rinlarni egallashlariga ishonamiz.

Umida JUMAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Muzrabot tumanidagi Yangiobod qishloq va o‘rmon xo‘jaligi kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi

Olamshumul Ixtirolar



TELESKOP

Bu asbob gollandiyalik ko‘zoynak ustasi Iogan Lipperschey tomonidan 1608-yilda yaratilgan. Bir yildan keyin esa Galiley teleskop yordamida to‘g‘ri koinotni kuzatgan.

MUZLATGICH



1850-yilda amerikalik vrach Jon Gori tomonidan sun‘iy muz hosil qila oladigan apparat kashf qilindi. Muzlatgichlar 1927-yildan boshlab AQSHda sanoat miqyosida ishlab chiqarila boshladi.

Boychechak chiqdi.
Quyoshning bag‘rida o‘t yondi, maysalar salomga oshiqdi, suvlarning yuzi tiniqlashib, turnalar arg‘imchoq soldi, adirlar yashil to‘n kiydi.

Varrak uchirayotgan bolalarning shodon qiyqiriqlari qishloq ko‘chalariga shodlik olib kirdi:

– Bolalar, boychechak chiqibdi, Gulining ko‘zlari chaqnadi.

– Voy, buncha chiroyli!

Nasiba uning qo‘lidan tutdi:

– Uzma uni, dugonajon.

– Nega?

– Nega bo‘lardi, boshqalar ham ko‘rsin-da!

– Uzsam-chi?

– Ustozning: «Tabiatni asranglar»

MEHR



deganlari esingdan chiqdimi?

– Shuni uzmasam, tabiatni asragan bo‘lamanmi?

– Go‘zallikni ham asragan bo‘lasan.

– Unda uzmaganim bo‘lsin!

– Guli, sen boychechakka o‘xshaysan.

– Voy, rostdanmi?

– Ishonmasang, dugona, ana boshqalardan so‘ra!

Guli boychechakdek kuldi.

SAODAT

AMMOLAR



– Oyi, bugun maktabga yangi uzun ko‘ylagimni kiyaman.

– Nega endi, shu issiqda-ya?..

– Kecha loyga yiqiluvdim. Tirsagimni yuvish esimdan chiqibdi.



– Akmal, o‘zingdan kichkina bolaning olmasini yeb qo‘yishga uyalmadingmi?

– Men-ku uyaldim, lekin nafsini uyalmadi-da...

M.HAMIDOVA



ERTA TUR!

Bolaligimizda momolarimiz: «Saharda farishtalar rizq ulashgani kelishadi, agar darvoza yopiqligini ko‘rishsa, qaytib ketishadi», der edilar. «Farishtalar qaytib ketishmasin», degan hadikda erta tongdanoq darvozani ochishga oshiqardik. Endi bilsam, bu gaplar bir o‘git bo‘lib, bizni erta turishga odatlantirish uchun aytilar ekan. Erta yotib, erta turish ota-bobolarimizdan qolgan odat. Onalarimiz, opa-singillarimiz saharlab ko‘chahovlilarga suv sepib, supirib-sidirishgan. Shu bois, tong sahardan ko‘chalarning fayzi ham boshqacha bo‘lgan. Erta tongdan maktabga, bog‘chaga otlanadigan bolalar ruhiyatida katta bo‘lganda ham barvaqt ishlarini bitirish odatlari shakllanar ekan.

Atrofga nazar soling, kuzating. Qaysi xonadonda erta turish odat bo‘lsa, o‘sha oilada qut-baraka bo‘ladi.

Jamshid NABIYEV



Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 90-, Hamza tumanidagi 216-maktablariga borganimizda, «Bilimlar sinovi» tanlovining ustidan chiqdik.

KO'NGILLARDA GUL UNAR

Bundan chamasini o'n besh yillar avval gazetamizda «Kichik akademiyaning akademiklari» maqolasi chop etilgan edi. Unda Hamza tumanidagi 216-maktabda tashkil etilgan «Kichik akademiya» to'garagi faoliyati yoritilgandi.

Ana shu to'garakning faol a'zosi bo'lgan Dilfuza Ernazarova bugungi kunda maktab o'quvchilariga geografiya fanidan saboq berib kelayotganini eshitib, behad quvondik.

Darvoqe, ushbu maskanda «Tong yulduzi» o'quvchilari juda ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan sevinib o'tgan yili «Bir maktabda 162 ta «Tong yulduzi!» rubrikasi ostida maqola ham chop etgan edik.

Mazkur bilim dargohida ham tadbir juda maroqli o'tdi. Maktab sahnasidagi to'qish va tikish, dizaynchilar, maqomchilar, yosh sportsevarlarning, qolaversa, barcha to'garak a'zolarining ko'rgazmali chiqishi hammani zavqlantirdi.

Maktab rahbari Saodat Berdimurodova, Dilfuza Ernazarova kabi jonkuyar ustozlar bor ekan, iste'dodlar ko'z ochaveradi. Yigirmadan ortiq fan va kasb-hunarga oid to'garaklarning muntazam ishlab turishi, ularning soni kundan-kunga ko'payib borishining o'zi katta muvaffaqiyat.

6-«A» sinf o'quvchisi Umida Ortiqovanning Alisher Navoiy g'azallarini maromiga yetkazib o'qib berganida, 8-«A» sinf o'quvchisi Gavhar Ahmedova go'zal raqsga tushganida, Shahzoda Maqsudova va Madina Nabijonova karate usullarini ko'rsatib berganida, 9-«A», «B» sinf o'quvchilaridan Nigora Alijonova, Muslima To'laganova, Sevara Gazixo'jayevaning mo'yalamidan yayrab ketgan ijod namunalari hech kimni befarq qoldirmadi.

Ma'mura YIGITALI qizi, Feruza SOYIBJON qizi

90-maktabning 5-«B» sinf o'quvchilari matematika fanidan «Abu Rayhon Beruniy» va «Mirzo Ulug'bek» guruhlariga bo'linib, bilimlarini namoyon etdilar.

Tadbirdan maktabning o'quvchi va o'quvchilari qatorida Toshkent viloyatining barcha tumanlaridan kelgan ustozlar ham bahramand bo'lishdi. Eng qizig'i, mehmonlar tomoshabin bo'libgina qolmay, hay'at

Fizika-matematika fani o'quvchisi Olmaxon Hayitova maktabning fidoi ustozlaridan biri.

KUYLAR MAYSA-YU YALPIZ...

a'zolari vazifasini o'tab, kichik matematiklarning iqtidorini xolisona baholab borishdi.

«Bilimlar sinovi»ga tayyor-garlik ko'rish jara-yonida Beruniy bobomiz hayoti va ijodini chuqurroq o'rgandik, — deydi guruh sardori Humoyun Boymirzayev.

— Navro'z ayyomiga bag'ishlangan tadbir bahonasida bilimlarimiz yanada charxlandi, — dedi Sabrina Usmonova.

Odatda bu kabi tadbirlarda faqat ishtirokchilargina faol bo'lardilar. Tanlov esa bahoriy kayfiyat hamda bolajon ustoz Olmaxon Hayitovanning mahorati tufayli yanada qiziqarli o'tdi. Chunonchi, bu fasl qadriyatlar ko'z ochgan palladir. Bu pallada kuylar hatto maysa-yu yalpiz!

Ziyoda Ibrohimovani yozishi taniysiz. U maktabning barcha tadbirlariga o'zining qo'shiq va raqslari bilan fayz kiritadi.

4-«A» sinf o'quvchisi Jamal Jo'rayev, 8-«A» sinf o'quvchisi Go'zal Alisherova ijrosidagi «Lazgining zavqi tomoshabinlarga ko'chdi».



Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida Avlod qishlog'i bor. Botirjon akangiz shu qishloqning bolasi. Hozirda Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida tahsil olayotgan talabamiz sizdek o'yin-qaroq bolajonlarni yaxshi ko'radi. Bugun Botirjon Normurodov Navro'z saylidan topgan «xazina»sidan birini sizlarga tuhfa etmoqchi. Zero, bunday milliy xalq o'yinlarimiz sizlarni chidamlilikka, chaqqonlilikka, teran mushohada qilishga o'rgatadi.

Bu o'yinda 6-7 nafar bolalar ishtirok etib, ularga bitta boshliq saylanadi. Bir bola to'rt oyoqlab turadi va ustiga ko'rpa yoki biror mato yopib qo'yiladi. Shuning uchun o'yinning nomi «Ko'rpa yopdi» deb nomlanadi. To'rt oyoqlab turuvchi bolakayni tayinlash uchun o'yin sardori tomondan qur'a tashlanadi. Sardor o'yinchi-

«KO'RPA YOPDI»



larga 20dan katta bo'lgan xohlagan songacha sanashni buyuradi. Masalan: 27gacha sanashni buyursa, kim shu songa kelib to'xtasa, o'sha o'yinni boshlab beradi.

O'yin quyidagicha boshlanadi: ustiga ko'rpa tashlangan bolaning qo'lga arqonni ushlatishadi, arqonning ikkinchi uchini esa sardor ushlaydi. Shu tariqa bu degani ko'rpa yopgan bolani qo'riqlashdir. Qolgan bolalar qo'llariga durralar olib, uning uchiga matolarni tugib, ko'rpa yopingan bolani kaltaklash payiga tushishadi. Sardor esa bolani jon-jahdi bilan himoya qiladi. Uning oyog'i o'yinchilardan qay biriga tegsa, shu bola ko'rpa tagiga kirishi kerak bo'ladi. O'yin 1-2 soat davom etadi.

Aslida bu o'yinning nomi boshqacha atalishi ham mumkin. O'yin shunday boshlanadi: ikkita marra belgilanadi.

Birinchi marra o'yin boshlanadigan joyda, ikkinchisi esa undan 50 metr uzoqroqda joylashadi. Shuningdek, o'yinchilar ham ikki guruhga bo'linadilar. O'yin davomida saylangan ikkita boshliqqa yana ikkita yordamchi tayinlanadi. Bu ikki yordamchilar sekingina kelib, o'zlariga yashirincha qo'yilgan nomni so'raydilar. O'yin boshidan yangi nomlarini eshitgan bolalar joy-joylarini egallaydilar. O'yinda 5-6 nafar bolalar qatnashadi. Bir xolis bola ikki kaftini yopib, sardorlar yoniga keladi. Kaftlari orasida mayda toshchalar bo'ladi.


«KIM TOPDI?»



Boshliqlar oldiga kelgach, ular «qaysisi kerak» deb so'rashadi. Ulardan birini tanlagan boshliq birinchi bo'lib o'yinni boshlab beradi.

O'yinni boshlab bergan guruh 60-70 santimetrli cho'pni ushlab turadi. Ikkinchi guruhning bitta ishtirokchisi cho'p yordamida koptokchani zarb bilan uradi. Shu guruhning qolgan ishtirokchilari koptokcha boradigan joyni poylab turishadi. Raqib hujumiga duch kelgan bola o'yindan chiqariladi. O'yin shu tariqa davom etaveradi.


G'OLIBA tayyorladi



Ko'mach yeganmisiz?



**Zavqimizni o'g'iraydi sho'x lolalar,
Maysalarga poyloqchimiz biz bolalar!**



boshiga zardo'zi do'ppi kiygan iboli o'zbek ayoli timsolida, mehridaryo onalarimiz siymosini ko'rgandek bo'lamiz.

bosqichlari g'olibi bo'ldi. Shuningdek, «Biz OITSga qarshimiz» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni, «Saxovatli oltin kuz», «Bolalik bahori» tanlovarida faxri o'rinlarni oldi. Diyoraning bu muvaffaqiyatlaridan ota-onasi ham, ustozlari ham juda mamnun.

DIYORANING DIL DAFTARI

Sirdaryolik iste'dodli qizimiz Diyora Normatova Mirzaobod tumanidagi 9-maktabning 8-sinfida o'qiydi. U o'zining portret janrida chizgan rasmida bahor go'zalligini, tabiatning hayratomuz mo'jizasi sanalmish o'rik gullarini «ayol timsoli» bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos ajib manzara yaratishga erishdi. Egnida bahor ruhiga mos atlas ko'ylak,

– Tasviriy san'at sohasida ko'p shug'ullanaman, tinimsiz izlanishlarim hamda ustozlarim ko'magida yaxshi natijalarga erishdim, – deydi Diyora biz bilan suhbat chog'ida. Darhaqiqat, Diyora 2010-yilda o'tkazilgan «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining tuman va viloyat



Barno RUSTAMOVA

BAHOR TAOMLARI

Bugun Siz, aziz muxlislarimizni momolarimiz tayyorlagan qadimgi taomlarimizdan ayrimlarini tayyorlash usullari bilan tanishtiramiz.



BUG'DOY GO'JA

Bahor kunlarida nafaqat sumalak, balki boshqa taomlar ham pishiriladi va qo'ni-qo'shnilarga tarqatiladi. Shulardan biri bug'doy go'jadir.

Bu taom yengil hazm bo'lishi, xushta'mligi bilan kishiga xush yoqadi. Buning uchun yangi qayroqi bug'doyni tuyib, ya'ni maydalab olasiz.

Bug'doy go'ja uchun 400 gramm tuyilgan bug'doy, 2,5 litr sut, ta'bga ko'ra tuz solinadi.

Bu taom yosh bolalar organizmi uchun juda foydali.

Tayyorlash usuli:

Bir hissa bug'doy uniga bir hissa makkajo'xori unidan, 1 choy qoshiq xamirturush, 3 choy



qoshiqda tuz solib, xamir qorasiz. Xamir oshmasidan darhol zuvalalarga yasaysiz. Tayyor zuvalani yog'langan tovaga solib, ustiga yana bitta tova yopasizda, cho'g' yoki qo'rga ko'mib pishirasiz. Ko'mach 25-30 daqiqada tayyor bo'ladi.



Bu taom va salatlaridan istaganingizni ona va buvilaringiz yordamida tayyorlab ko'ring. Qiz bola pazanda bo'lishi lozim. O'g'il bolalar esa hech bo'lmaganda, kabob va oshni tayyorlay bilishlari kerak. Osh bo'lsin!

KO'MACH

Ko'mach qadimiy taomlardan biri. U juda mazali, sog'liq uchun foydali, to'yimli nondir.

Shuningdek, Sizlarni «Mart taomnomasi» bilan ham tanishtiramiz.

| | | | |
|-----------------------------|------------------------|----------------------|--------------------|
| 1. Rovocho salati. | 1. Qatiqli moshxo'rda. | 1. Sariyog'li palov. | 1. Shirchoy. |
| 2. Bodring va tuxum salati. | 2. Shovul sho'rva. | 2. Qiyma biyron. | 2. Gilos murabbos. |
| 3. Kallapocha. | 3. Umoch oshi. | 3. Titrama kabob. | 3. Tut talqon. |
| 4. Yaxna jigar. | 4. Loviya oshi. | | 4. Meva suvi. |

NARGIZA tayyorladi

UYDA YOLG'IZ QOLSANGIZ...

Aziz bolajonlar! Uyda yolg'iz qolayotganingizda, ota-onangiz «Gugurt o'ynama, gazni yoqma» deya tayinlashadi, to'g'rimi? Maktabingizda ham bu mavzuda sizlarga tarbiyaviy soatlar o'tiladi. Bularning bari siz, aziz bolajonlarning xavfsizligingizni ta'minlash, beparvolik oqibatida kelib chiqayotgan yong'inlarning oldini olish uchundir. Bu borada mamlakatimiz olimlari va

mutaxassislari tomonidan «Yong'in xavfsizligi to'g'risida»gi qonun joriy qilindi. Unga ko'ra har bir kishi ishlash va yashash joylarida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishini ta'minlashi shart. Bir so'z bilan aytganda, «Yong'in xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni har

birimiz uchun zarur tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Temur MADUMAROV,
24-YOXX boshlig'i,
mayor



Nuqtalar qo'yilgan shaklni bo'yang.
Qanday rasm hosil bo'ladi?



TONG YULDUZI

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilmiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:

(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092
Adadi - 71378
Buyurtma N: J 1347